**Emro Science and Education**
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316609

# MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MASALALARI

***Saliev Baxodir Kamilovich***
*TDIU, dotsenti, i.f.n.*
***Maxmudov Farrux***
*TDIU, Andijon fakulteti*
*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada moliyaviy nazoratning asosiy jihatlari va tamoyillarini ilmiy chizmalar va tahlillar bilan ochib berishga harakat qilingan. Hozirgi kunda moliyaviy nazoratning asosiy maqsadi tekshirilayotgan obektda mavjud bo'lgan haqiqiy holatni obektiv o'rganish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ijro etishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash yoki oldini olishdan iborat.*

**Kalit so'zlar:** *moliya, nazorat obektlari, budjet, tamoyillar, mahalliy idoralar,iqtisod, hisob palatasi.*

Moliyaviy nazoratning yuzaga kelishi va rivojlanishi davlat moliyaviy tizimining tashkil etilishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Moliyaviy nazoratni tashkil etish bu moliyaviy resurslarni boshqarishning majburiy elementi hisoblanib, bunday boshqaruv jamiyat oldidagi javobgarlikni aks ettiradi.

Nazorat bu oxirgi maqsad hisoblanmaydi, nazorat bu boshqarish tizimining ajralmas qismi bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali amal qilishining zaruriy shartidir. Moliyaviy nazorat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish ustidan davlat nazoratining tarkibiy elementi bo'lib hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek - "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash - eng muhim ustuvor vazifamizdir". Davlat budjeti budjet mablag'lari boshqaruvchilarining ehtiyojlarini moliyalashtirish orqali muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradi.

Iqtisodiyot va umuman jamiyatni rivojlantirish uchun muhimligiga qaramay, O'zbekiston budjet tizimi yuqori markazlashuv, davlat qarzining yuqori darajasi sharoitida budjet taqchilligini moliyalashtirish muammolari va boshqalar bilan bog'liq ma'lum kamchiliklarga ega. Nazorat boshqarish siklining shakli sifatida qabul qilinayotgan yoki qabul qilingan boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va samaradorligini baholash, bu qarorlarning amalga oshirilish darajasini haqiqiy natijalarning o'rnatilgan parametrlari va me'yoriy ko'rsatmalardan og'ish (farq qilish) darajasini aniqlash va salbiy holatlarni bartaraf etishga qaratiladigan boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida boshqariluvchi obekt faoliyatini kuzatish, solishtirish, tekshirish va tahlil qilish tizimidir.

Moliyaviy nazorat – bu faoliyat yurituvchi xo'jalik subektlarining moliyaviy muomalalarini o'rnatilgan qonun-qoidalar doirasida amal qilinishini ta'minlovchi



Published: 17.05.2024

**Cite this article:** Saliev Baxodir Kamilovich, Maxmudov Farrux (2024). Moliyaviy nazoratni tashkil etishning dolzarb masalalari. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316609

*© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

ularning samaradorligini tahlil qiluvchi va ularni kelgusida takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiquvchi mas’ul organlarning aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati. Moliyaviy nazoratning maqsadi – bu shunchaki faqat nazorat emas, balki uning maqsadi ahvolni to‘g‘rilash choralarini ko‘rish, ayrim hollarda aybdorlarni javobgarlikka tortish, yetkazilgan zarar uchun tovon undirib olish yoki kelgusida bunday buzilishlarning oldini olish yoxud kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun imkoni boricha dastlabki bosqichda qabul qilingan standartlardan chekinishlarni va qonun qoidalarning buzilishlarini oldini olish, moddiy resurslarning samaradorligini oshirish va tejab sarflanishini aniqlashdan iboratdir.

Moliyaviy nazoratning ahamiyati shundan iboratki, uning yordamida birinchidan, davlat va jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar tomonidan o‘z moliyaviy faoliyatlarida huquqiy tartibga rioya etilishini kuzatib borish; ikkinchidan, amalga oshirilayotgan moliyaviy harakatlarning iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligini, bu harakatlarning davlat oldida turgan vazifalarga muvofiq kelishini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat moliyaviy faoliyatni amalga oshirish paytida qonunchilikka rioya etish, harakatlarni maqsadga muvofiqligini ta’minlashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida moliyaviy nazoratning maqsad va vazifalari, turlari va shakllari tubdan o‘zgardi. Endi u faqatgina jazolash maqsadida emas, balki davlatning o‘z vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning to‘liq to‘planishi va budjet mablag‘laridan maqsadga muvofiq samarali xarajat qilinishini nazorat qilish maqsadida maslahat va ko‘rsatmalar berish kabi vazifalarni bajarmoqda. Bugungi kunda moliyaviy nazorat tizimi o‘z tarkibida nazorat qiluvchilar va nazorat qilinuvchilar bilan birga nazoratning turlari, shakllari va usullarini ham jamlaydi. Moliyaviy nazoratning muvoffaqiyatli va samarali o‘tkazilishi uning tashkil etilish darajasiga va nazoratning turlari, shakllari va uni o‘tkazishning metodlariga bog‘liq.

Moliyaviy nazorat masalalari bilan mamlakatimizning ko‘plab olimlari, mutaxassislari va ilmiy tadqiqotchilari shug‘ulnagan va shug‘illanyab kelmoqdalar, Shunga qaramasdan ushbu sohada bir qator masalalar, hususan, uning istiqbolli yo‘nalishlari va uni takomillashtirish zarurati, hamda uning xuquqiy va metodologik ta’minoti chuqur va atroflicha tahlil etish xozir ham kun tartibida turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi.

Ma’lumki, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida davlat moliyasi, xususan davlat budjeti va uning ustidan davlat nazorati muxim axamiyatga ega. Shunday ekan, davlat budjetini shakillantirish, tuzish va ijro etish sifatini oshirish va demak, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish zaruratini ham keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan ham, uning faoliyat natijalari ko‘p jihatdan budjet mablag‘larini maqsadli, manzilli sariflanishi hamda ortiqcha va noqonuniy sarflanishlarni oldini olish va unga yo‘l qo‘ymaslik bilan baholanadi.

O‘rni kelganda shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, ayrim tadqiqotchilar moliyaviy nazorat tizimini asosiy strategik maqsadlari, g‘oyalari va rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash uchun strategiyasini ishlab chiqish zarurligi takidlaydilar va uni amalga